

## KOREYS VA INGLIZ TILLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Aliqulova Feruza Abror qizi

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** *Maqolada koreys va ingliz tillari o'rtasidagi lingvomadaniy tafovutlar misollar orqali tahlil qilinadi.*

**Tayanch so'z va birikmalar:** *til, madaniyat, lingvomadaniyat, koreys tili, ingliz tili, xalq mentaliteti.*

**Annotation.** *The article analyzes the linguistic and cultural differences between Korean and English with examples.*

**Keywords:** *language, culture, linguoculture, Korean, English, folk mentality.*

Xorijiy tillarni egallash darajasi kundan-kunga oshib borayotgan globalizatsiya jarayonida o'z ona tili bilan bir qatorda chet tilni bilish turli tilda so'zlovchi xalqlar o'rtasida muomala ko'prigi bo'lish bilan birga siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, bugungi kunda til, madaniyat, etnosning o'zaro aloqasi va munosabati masalasini o'rganish to'g'risida olib borilayotgan tadqiqotlar muhim hisoblanadi. Til millatning bosh belgisi, asosiy unsuri ekanligi haqidagi gap faqat shaklga daxldor emas, til millatning mag'zi va mohiyatiga daxldor tushunchadir. Tilda xalqning mentaliteti, milliy xarakteri, urf-odatlar, qadriyatlar, an'analari, hayot tarzi va dunyoqarashi aks etadi. Olmon allomasi Vilgelm fon Gumboldning: "Mening millatim tilining doiralari mening dunyoqarashimning doiralarini bildiradi", degan gaplari bugun jahon tilshunosligida shakllanib ulguragan "lingvomadaniyatshunoslik" yo'nalishining asosini tashkil etmoqda.

Lingvomadaniyat tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, "lingvomadaniyat" ("lingvokulturologiya") (lot. lingua "til"; cultus "hurmat qilish, ta'zim qilish"; yunon. "ilm, fan") termini V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan [1].

Lingvomadaniyat - til va madaniyat kesishgan nuqtada shakllangan va tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etuvchi fan [2, c.22]. Ikki madaniyat vakillari muloqot qilayotganda bir-birini tushuna olmasligi madaniyatlarning to'qnashuvini yuzaga keltiradi. Bu esa til o'rganish jarayonida katta muammo sifatida ko'tariladi. Bu holatni koreys va ingliz tillari misolida ko'rib o'tamiz.

Sharq qadriyatlar tizimi	G'arb qadriyatlar tizimi
Jamoatchilik va jamoaga qarab ish tutish	Shaxsiyat va yakkalik
Iyerarxiya/ daraja/ ijtimoiy martaba	Tenglik
Spiritualizm	Materializm
Rasmiyatchilik	Norasmiyatchilik
Andisha	Ochiq-oydinlik

Konservativlik	Liberallik
Odob-axloqqa asoslanganlik	Qoida va qonunlarga asoslanganlik

1- jadval [3, p.137]

Ingliz xalqi norasmiy so'zlashuv muhiti va qulaylikni afzal ko'radi. Shu sababli ular ijtimoiy mavqeyi teng bo'lmasa-da, bir-birlariga ism orqali murojaat qiladi. Murojaatning rasmiyligi yoki oddiyligi tinglovchining ijtimoiy martabasi, yoshiga qarab emas, so'zlovchi bilan munosabatlarining yaqinlik darajasiga ko'ra belgilanadi. Koreys xalqida esa ijtimoiy sinflar shaxsiyatdan ustun turadi. Yoshi katta yoki mavqeyi yuqori bo'lgan so'zlovchi shaxs firma prezidentini sajang (사장) deb chaqirsa, yosh va past qatlamdan bo'lgan inson unga sajangnim (사장님) deb murojaat qilishi lozim.

님 hurmatni ifodalovchi qo'shimcha bo'lib, notanish shaxslar, mijozlar, ijtimoiy sinf vakillarini ifodalovchi so'zlarga qo'shilish bilan birga, aql, bilim va qobiliyatlar jihatidan o'zidan yuqori turuvchi shaxsni bildiruvchi so'zlardan keyin ham qo'llaniladi.

Oddiy shakl	Hurmat shakl	O'zbek tilida	Ingliz tilida
사장 (sajang)	사장님 (sajang-nim)	boshliq; direktor	company president
선생 (seonsaeng)	선생님 (seonsaeng-nim)	o'qituvchi	teacher
부모 (pumo)	부모님	ota-ona	parents
할머니 (halmeoni)	할머니님 (halmeo-nim)	buvi	grandmother
아버지 (aeboji)	아버님 (aebo-nim)	ota	father

2-jadval

Koreys madaniyatida hurmat birinchi o'rinda turib, bu muloqot jarayonida tilning leksikasida namoyon bo'ladi.

Odatiy shakl	Hurmat shakl	O'zbek tilida	Ingliz tilida
먹다 (meokda)	드시다 (deusida)	yemoq	to eat
자다 (jada)	주무시다 (jumusida)	uxlamoq	to sleep
있다 (itda)	계시다 (gyesida)	Bo'lmoq	to be
밥 (bap)	진지 (jinji)	ovqat	food

말 (mal)	말씀 (malssum)	nutq	speech
나이 (nai)	연세 (yeonse)	yosh	age
집 (jip)	댁 (daeg)	Uy	house

3-jadval

Koreys tilini o'rganayotgan o'quvchi ko'rishi mumkinki, koreys tilida 1-shaxs birlik egalik olmoshi o'rnida 1-shaxs ko'plik egalik olmoshi ishlatiladi. Tinglovchi kursdoshi, aka-ukasi, tanishi yo hamyurti bo'lmasa-da, “bizning o'qituvchimiz” (우리 선생님), “bizning universitetimiz” (우리 학교), “bizning dadamiz” (우리 아버님), “bizning uyimiz” (우리 집), “bizning Vatanimiz” (우리 나라) deyishlari oilaparvarlik va vatanparvarlikni o'zida aks ettirishning bir misolidir [4, p.144].

Bu ikki tildagi yana bir o'ziga xos xususiyatlardan biri yonma-yon keluvchi juft yoki antonim so'zlar, birikmalar bilan bog'liq bo'lib, bu farqlanishlar ham madaniyatlarning tildagi aksiga yaqqol misol bo'la oladi. Masalan, ingliz tilida “Northern East” (Shimoliy Sharq) so'zi koreys tilida “동북” -East North (Sharq shimol) shaklida beriladi. Ingliz tilida standart yo'nalish Shimoliy qutb, shu sababli shimol birinchi o'rinda keladi. Koreys tilida esa quyosh sharqdan chiqqanligi uchun sharq eng muhim yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, ingliz tilida “young and old” (yosh va qari), “rich and poor” (boy va kambag'al) antonim so'zlari koreys tilida “old and young” (qari va yosh), “poor and rich” (kambag'al va boy) shaklida berilishi ham koreys xalqida yoshi kattalarga bo'lgan hurmat, koreys xalqining kelib chiqishi bilan bog'liq.

“밥 먹었어요?”- Have you eaten? (Ovqatlaningizmi?) salomlashayotganda suhbatdoshidan so'raladigan bu savol koreys xalqining qadimiy tarixiga borib taqalib, oddiy xalq uchun ovqat topish qiyin bo'lgan zamonlardan qolgan an'ana hisoblanadi va bu boshqa tillarda kuzatilmaydi. Agar ingliz tilida suhbatdoshga bu savol berilsa, bu so'zlovchining u bilan birga ovqatlanmoqchi ekanligini yoki u uchun ovqat tayyorlab bermoqchi ekanligini anglatadi.

Ingliz o'quvchilaridan farqli tarzda koreys talabasi suhbatdoshini ranjitib qo'ymaslik uchun o'z fikrini beozor tarzda yetkazishga harakat qiladi. Bu holat kundalik hayot bilan bir qatorda dars jarayonidagi bahs-munozaralarda ham namoyon bo'ladi. Mutaxassislar koreys xalqi mentalitetiga xos bo'lgan bu muomala madaniyatini Konfutsiy ta'limotidan kelib chiqqan deb hisoblaydilar [5, p.34].

Bugungi kunga kelib G'arb madaniyatining koreys yoshlari orasida tarqalishi tilga moslashish uchun yordam bersa-da, olimlarning ta'kidlashlaricha (Montoya 2002), ta'lim jarayonida Sharq talabalarigagina xos bo'lgan xususiyatlar borki, g'arb tilini o'rgatayotgan o'qituvchi bu holatlarni hisobga olishi o'quvchini tushunishga yordam beruvchi yo'l-yo'riq bo'ladi:

- O'quvchi ko'zga qarab gapirishdan qochishi mumkin, chunki bu sharq madaniyatida o'qituvchi yo yoshi kattalarga nisbatan hurmatsizlik belgisi;